

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARI

Eshmuratova Xurshidabonu Farxod Qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Talabasi

Anatatsiya: *ushbu maqolada rivojlangan davlatlarda innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *rivojlanish, davlatlar, ta'lim, boshlang'ich, innovatsiya, texnologiya, bilim, ko'nikma, malaka, kompetentsiya.*

KIRISH

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustinligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Rivojlangan davlatlarda Boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvlar. Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida davlatlarning Boshlang'ich ta'limga doir innovatsion yondashuvlari pedagog olimlarning e'tiborini tortmoqda. Bu o'rinda avvalo, asosiy tushunchalarning mazmunini aniqlab olish lozim bo'ladi.

Rivojlangan davlatlar deganda quyidagi mezonlarga javob beruvchi mamlakatlar tushuniladi:

- bozor iqtisodiyotiga asoslangan barqaror ishlab chiqarishga egalik;
- davlat siyosatida ijtimoiy yo'nalishlarning ustuvor bo'lishi;
- tipik va innovatsion ta'lim tizimiga egalik;
- ijtimoiy rivojlanishda milliy modulga egalik va h.k.

Mazkur mezonlar asosida rivojlanayotgan davlatlar Yevropa qit'asida ko'pchilikni, Osiyoda esa nisbatan kamchilikni tashkil etadi. O'zbekiston ham 2019-yildan boshlab rivojlangan davlatlar tarkibiga kiritilgan.

Boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvlar deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- boshlang'ich ta'limning barcha uchun majburiyligi va bepulligi;
- boshlang'ich ta'lim mazmuni, maqsadi va vazifalarining takomillashib borilishi;
- boshlang'ich ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari va darsliklarining muntazam optimlashtirib borish imkoniyatlariga ega ekanligi;
- boshlang'ich ta'limga yangicha yondashuvlarni joriy qilish mumkin bo'lgan tarzda ochiq bo'lishi;

- boshlang'ich ta'lim yutuqlarining universal xarakterga ega ekanligi;
- boshlang'ich ta'limning har bir davlat siyosatida ustuvor o'rin tutishi.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvlarning asoslarini tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlarda Boshlang'ich ta'limning zamonaviy texnologiyalari. Hozirgi zamon Yevropa va Amerika qit'asida rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunday zamonaviy texnologiyalarni asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

- boshlang'ich ta'limni individual asosda amalga oshirish, ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining miqdorini keskin kamaytirish va har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanish;

- boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asosan amalga oshirish, ya'ni boshlang'ich ta'limda axborot- ta'lim tizimini yo'lga qo'yish;

- boshlang'ich ta'limda o'qituvchi avtoritetini kamaytirish, ya'ni kompyuter kabi o'quv- texnik jihozlar vositasida amalga oshirish va bunda o'qituvchining boshqaruvchilik rolini yo'naltiruvchilikka aylantirish;

- boshlang'ich ta'limda minimal fanlarni o'qitish, ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakasini shakllantiruvchi asosiy fanlarni cheklanishi.

Mazkur asosiy texnologiyalar Yevropa mamlakatlaridan Finlandiya, Germaniya, Avstriya kabi davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalarning asosiy maqsadi 7-11 yoshli o'quvchilarni o'rinsiz o'quv yuklamlaridan ozod qilishdir.

Rivojlangan davlatlarning boshlang'ich ta'limga oid zamonaviy texnologiyalari asoslarida quyidagilar turadi:

- texnik taraqqiyotning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi;

- boshlang'ich ta'limni yuksak darajada moliyalashtirish va bundan manfaatdorlik;

- mudom boshlang'ich ta'lim mazmunini yangilab borish;

- boshlang'ich ta'limni amalga oshiruvchilarni maksimal darajada rag'batlantirish.

Bularning barchasi rivojlangan davlatlarda boshlang'ich ta'lim texnologiyalarining rivojlanib borishiga va ularning xalqaro miqyosda ommalashuviga asos bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://goaravetisyan.ru/uz/integririvannoe-obuchenie-sushchnost-osnovnye-idei-i-principy-integrativnoi-pedagogiki-vidy-integrac>

2. Юсупова Ш., Режапова Д. Интеграцияли дарслар ташкил қилиш методикаси. – А.: 2007.

3. Mirqosimova M. THE VIEWS OF AHMED YASSAVI ON SPIRITUAL EDUCATION //The Light of Islam. – 2019. – Т. 2019. – №. 1. – С. 10.

4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: Voris-nashriyot, – 2013. – B. 10-35.
5. Mirqosimova M.M. Masofaviy ta'lim sharoitida o'quv fanlarini integratsiyalash tamoyillari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2020 yil №1). 69- 80-b
6. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o'quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b
<https://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951>
7. Usmonova Q.S. Boshlangish ta'limda Filandiya ta'lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
8. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s
9. Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s